

# MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI  
MARKETING  
BIZNES  
SAVDO  
INNOVATSIYA  
TARQIQUVCHI  
NATIJASI  
BREMNING

**№ 8 – SON**

**2025-YIL, AVGUST**

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





# Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 29 AVGUST, 2025-YIL

## JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

## ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

[www.marketingjournal.uz](http://www.marketingjournal.uz)

ELEKTRON POCHTA:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

## MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

## JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

## INDEKSATSIYA



## BOSH MUHARRIR

**Xakimov Ziyodulla Axmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Yusupov Muxamadamin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

## TAHRIR HAY'ATI:

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

**Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna**, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

**Soliyev Axmadjon Soliyevich**, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

**Ikramov Murad Akramovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich**, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

**Zarova Elena Viktorovna**, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

**Akramov Tohir Abdirahmonovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Samadov Asqarjon Mishomovich**, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi**, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

**Sobirov Azizbek Avazbekovich**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Sadikov Shoxrux Shuxratovich**, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

**Musyeva Shoirazimovna**, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

**Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Djurabayev Otabel Djurabayevich**, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

**Karimova Shirin Zoxid qizi**, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

**Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich**, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich**, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

**Bobojonov Azizjon Babaxanovich**, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

**Allayarov Shamsiddin Amanullayevich**, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

**Jumayev Olimjon Sadulloevich**, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

**Eshov Mansur Po'latovich**, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich**, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

**Tuychiyev Alisher Jurayevich**, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

**Nazarova Ra'no Rustamovna**, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Usmonov Bunyod Aktam o'g'li**, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

**Dehqonov Burxon Rustamovich**, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

**Turobova Hulkar Rustamovna**, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

**Elektron nashr** 352 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-avgustda ruxsat etildi

# MUNDARIJA

|                                                                   |            |
|-------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ .....</b>        | <b>6</b>   |
| <b>Касимова Фатима Тулкиновна</b>                                 |            |
| <b>THE ROLE OF DIPLOMATIC INITIATIVES IN STRENGTHENING INDIA–</b> |            |
| <b>UZBEKISTAN ECONOMIC TIES .....</b>                             | <b>13</b>  |
| <b>Abror Kucharov, Jyoti Meshram</b>                              |            |
| <b>DISTINCTIVE FEATURES OF DATA PROCESSING IN TOURISM AND THE</b> |            |
| <b>POSSIBILITIES OF THEIR USE .....</b>                           | <b>22</b>  |
| <b>Abduvokhidov Abdumalik Makhkamovich</b>                        |            |
| <b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT TIZIMINING</b>        |            |
| <b>IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....</b>                   | <b>32</b>  |
| <b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich</b>                           |            |
| <b>XODIMLAR BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI REJALASHTIRISHNI</b>    |            |
| <b>TAKOMILLASHTIRISH.....</b>                                     | <b>40</b>  |
| <b>Ametova Nasiba Danilovna</b>                                   |            |
| <b>UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI .....</b>        | <b>52</b>  |
| <b>Gozieva Mokhira Rustamovna</b>                                 |            |
| <b>ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC PECULIARITIES OF PRODUCTION</b>    |            |
| <b>OF BUILDING MATERIALS FROM THE POINT OF VIEW OF</b>            |            |
| <b>INNOVATION .....</b>                                           | <b>60</b>  |
| <b>Igamova Shaxinya Zikrilloyevna</b>                             |            |
| <b>QURILISH TASHKILOTLARINING INNOVASION RIVOJLANISHIDA</b>       |            |
| <b>XODIMLAR FAOLLIGINING AHAMIYATI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI..</b> | <b>70</b>  |
| <b>Karimova Aziza Azamiddin qizi</b>                              |            |
| <b>TASHKILOTDAGI BOSHQARUV TIZIMINING MEHNAT</b>                  |            |
| <b>SAMARADORLIGIGA TA’SIRI.....</b>                               | <b>78</b>  |
| <b>Usmonov Adxamjon A’zamjonovich</b>                             |            |
| <b>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK RIVOJLANISH</b>           |            |
| <b>LOYIHALARINI BOSHQARISH: LOYIHA BOSHQARUVI YONDASHUVLARI</b>   |            |
| <b>ASOSIDA.....</b>                                               | <b>87</b>  |
| <b>Sobirjanova Oydina Bobir qizi</b>                              |            |
| <b>LOGISTIKA PROVAYDERLIK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI</b>          |            |
| <b>OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI</b>     |            |
| <b>96</b>                                                         |            |
| <b>Rajabov Orzujon Mamasoliyevich</b>                             |            |
| <b>TASHQI BOZORLARGA INTEGRATIVASIYALASHUVNING MINTAQAVIY</b>     |            |
| <b>IQTISODIYOTGA TA’SIRI VA UNGA NISBATAN NAZARIY</b>             |            |
| <b>YONDASHUVLAR .....</b>                                         | <b>107</b> |
| <b>Ozodova Farida Zarif qizi</b>                                  |            |

|                                                                                                                                         |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KORXONADA ISHLAB CHIQUARISH POTENTIALIDAN FOYDALANISH TAHLILI .....</b>                                                              | <b>112</b> |
| <b>Musayeva Shoirazimovna</b>                                                                                                           |            |
| <b>BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH VA YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....</b>            | <b>122</b> |
| <b>Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li</b>                                                                                                   |            |
| <b>FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES .....</b>                                  | <b>128</b> |
| <b>Kurbanova Maftuna Lazizovna</b>                                                                                                      |            |
| <b>ОЦЕНКА КОММЕРЧЕСКОЙ НЕДВИЖИМОСТИ В E-COMMERCE-ЭПОХУ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА .....</b>                             | <b>140</b> |
| <b>Мансурова Сайёра Бахтияровна</b>                                                                                                     |            |
| <b>TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH USULLARI .....</b>                              | <b>152</b> |
| <b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich</b>                                                                                                 |            |
| <b>KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONIDAGI TENDENSIYALARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..</b>                | <b>159</b> |
| <b>Salayev Jasurbek Komilovich</b>                                                                                                      |            |
| <b>KORPORATIV BOSHQARUVDA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....</b>                                          | <b>170</b> |
| <b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>                                                                                                     |            |
| <b>OLMAZOR TUMANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI INNOVATSION BOSHQARUV ORQALI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA IMKONIYATLARI .....</b> | <b>181</b> |
| <b>Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li</b>                                                                                               |            |
| <b>ANALYSIS OF INDONESIA'S DUALISTIC FINANCIAL SYSTEM AND ITS POSSIBILITIES FOR USE IN UZBEKISTAN .....</b>                             | <b>193</b> |
| <b>Irgasheva Gulbakhor</b>                                                                                                              |            |
| <b>HUDUDLARNI EKSPORT SALOHIIYATINI OSHIRISHDA MAHALLIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH .....</b>                                         | <b>202</b> |
| <b>Bekchanov Davron Masharipovich</b>                                                                                                   |            |
| <b>РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ .....</b>                                        | <b>219</b> |
| <b>Азизов Ильдар Рафаэлевич</b>                                                                                                         |            |
| <b>TIJORAT BANKLARIDAN UNDIRILADIGAN FOYDA SOLIG'INING DAVLAT BYUDJETIGA TA'SIRI .....</b>                                              | <b>226</b> |
| <b>Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi</b>                                                                                                  |            |
| <b>ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ ПУТЕЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ .....</b>                                                                   | <b>232</b> |
| <b>Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы</b>                                               |            |



|                                                                                                                            |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>RAQAMLI IQTISODIYOTNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI VA YANGI KASBLAR .....</b>                                              | <b>240</b> |
| <b>Sadriddinova Xilola Raxmatullayevna</b>                                                                                 |            |
| <b>THE FACTORS THAT INFLUENCE THE PRICING OF A PRODUCT OR SERVICE.....</b>                                                 | <b>247</b> |
| <b>Sa’dullayeva Sayyora Nasillo qizi</b>                                                                                   |            |
| <b>O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR.....</b>     | <b>253</b> |
| <b>Matkarimov Jahongir Shamuratovich</b>                                                                                   |            |
| <b>XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI ..</b>                                                             | <b>267</b> |
| <b>Mallaboev Anvarjon Sotvoldievich</b>                                                                                    |            |
| <b>MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....</b>                                       | <b>275</b> |
| <b>Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich</b>                                                                                |            |
| <b>ЦИФРОВАЯ РЕВОЛЮЦИЯ И НОВОЕ КАЧЕСТВО МАРКЕТИНГОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАЛОГО БИЗНЕСА .....</b>                                 | <b>283</b> |
| <b>Вахабов Асадулло Убайдулло угли</b>                                                                                     |            |
| <b>FINTECH VA BANKLAR O‘RTASIDAGI QARAMA-QARSHILIK VA ULARNING INTEGRATSIYALASHUV IMKONIYATLARI .....</b>                  | <b>291</b> |
| <b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b>                                                                                     |            |
| <b>KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNI RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINING UMUMIY YO‘NALISH VA XUSUSIYATLARI .....</b> | <b>298</b> |
| <b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b>                                                                                      |            |
| <b>SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING HOLATI VA SOHANI YANADA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....</b>         | <b>308</b> |
| <b>Normurodov Umidjon Normurod o‘g‘li, Shadiyeva Lobar Abdurazikovna</b>                                                   |            |
| <b>XODIMLARNI RIVOJLANTIRISH – KADRLAR SIYOSATIDAGI ASOSIY USTUVOR YO‘NALISHLARDAN BIRI .....</b>                          | <b>316</b> |
| <b>Sattarov Shuxrat Abug‘affarovich</b>                                                                                    |            |
| <b>DAVLAT IQTISODIYOT XAVFSIZLIGINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI .....</b>                                               | <b>323</b> |
| <b>Karimov Javlon Ko‘ziyevich</b>                                                                                          |            |
| <b>MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....</b>                         | <b>333</b> |
| <b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>                                                                                  |            |
| <b>SANOAT KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH.....</b>                     | <b>344</b> |
| <b>Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li</b>                                                                                |            |

## XODIMLAR BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Ametova Nasiba Danilovna**

Toshkent davlat agrar universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: [ametovanasiba95@gmail.com](mailto:ametovanasiba95@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada xodimlar bilan hisob-kitoblar auditini rejalashtirishni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha ichki nazorat tizimini baholash uchun ishchi hujjat, elementlar kesimida ichki nazoratni baholash tartibi, ichki nazorat tizimining ishonchliligini baholash mezonlari, auditorlik dalillarini to'plash bo'yicha tartib-taomillarning namunaviy ro'yxati, audit rejasi va audit dasturi taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** auditorlik tekshiruvi, auditda hal etiladigan vazifalar auditorlik dalillarini, auditorlik tartib-taomillari, ichki nazorat, baholash mezonlari, audit dasturi.

### Аннотация

В данной статье освещены вопросы совершенствования планирования аудита расчетов с персоналом. В частности, предложены рабочий документ для оценки системы внутреннего контроля по расчетам с персоналом, порядок оценки внутреннего контроля по элементам, критерии оценки надежности внутреннего контроля, примерный перечень процедур по сбору аудиторских доказательств, план и программа аудита.

**Ключевые слова:** аудиторская проверка, задачи, решаемые в ходе аудита, аудиторские доказательства, аудиторские процедуры, внутренний контроль, критерии оценки, программа аудита.

### Abstract

This article highlights issues related to improving the planning of audits of employee settlements. In particular, it proposes a working paper for evaluating the internal control system related to employee settlements, a procedure for assessing internal control by elements, criteria for evaluating the reliability of internal control, a sample list of procedures for collecting audit evidence, as well as an audit plan and audit program.

**Keywords:** audit inspection, tasks resolved during the audit, audit evidence, audit procedures, internal control, evaluation criteria, audit program.

### KIRISH

Mehnat resurslarini boshqarish sohasida samarali siyosatni amalga oshirish doirasida rahbariyat ko'p hollarda turli bahsli holatlarga duch keladi. Bunday holatlar, avvalo, mehnatga haq to'lash tizimini tartibga soluvchi mehnat qonunchiligi buzilishi,

shuningdek, ish haqi summasining hisoblanishi va undan ushlanmalarni amalga oshirish tartibi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, raqobat sharoitida har bir rahbar oldida iqtisodiy jihatdan asoslangan va samarali mehnatga haq to‘lash tizimini shakllantirish vazifasi turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 248-moddasiga muvofiq: “Ish haqi asosiy (bazaviy) va qo‘shimcha (o‘zgaruvchan) qismlardan iborat bo‘ladi. Ish haqining asosiy (bazaviy) qismi ushbu ish beruvchida amalda bo‘lgan mehnatga haq to‘lash tizimi asosida belgilanadi va qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak. Ish haqining asosiy (bazaviy) qismi uning doimiy tarkibiy qismi bo‘lib, xodimga belgilangan mehnat normalariga (tarif stavkalariga, maoshlarga) ko‘ra haqiqatda ishlab berilgan vaqt yoki haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblanadi”[1].

Xodimlar bilan hisob-kitoblarning murakkabligi va sermehnatligi inobatga olinganda, rahbariyat uchun ishonchli va aniq ma‘lumotlarga ega bo‘lish juda muhim hisoblanadi. Bunday ma‘lumotlarni olish va mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar ustidan samarali nazoratni ta‘minlashda eng maqbul vosita — bu mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar auditidir. Ma‘lumki, mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblar asosan plastik kartalar orqali, ayrim hollarda esa naqd pul shaklida amalga oshiriladi. Shuningdek, bu sohada ataylab yoki bilmasdan ko‘p xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi, bu esa auditordan tekshiruvda maxsus e‘tibor qaratishni talab etadi. Shu bois, auditni puxta rejalashtirish va tashkil etish, dastavval uning maqsadi, vazifalari va ma‘lumot manbalarini aniq shakllantirish zarur.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditini rejalashtirishga oid masalalar xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ko‘rib chiqilgan. Xususan, rossiyalik soha olimlari Yu.P. Zelenko, G.I. Zolotaryova [7], Ye.N. Lituk, A.S. German [14], S.M. Bychkova, T.Yu. Fomina [5], N.V. Parushina [15] va boshqalar tomonidan xodimlar bilan hisob-kitoblar auditining nazariyasi va metodologiyasi yoritilgan.

O‘zbekistonda xodimlar bilan hisob-kitoblar auditining nazariy-metodologik va amaliy masalalariga Axmedjanov K.B. [11], Askarova D.X. [4], Dusmurov R.D. [6], Ilxomov Sh.I. [9], Karimov A.A. [10], Karimov N.F. [12], Tuychiyev A.J. [16], Qo‘ziyev I.N. [8], To‘laxo‘jayeva M.M. [17] kabi olimlarning ishlari katta hissa qo‘shgan.

Ushbu ishlarda auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish, rejalashtirish va o‘tkazishning umumiy prinsiplari bayon etilgan, ko‘p uchraydigan xatolar va qonunbuzilishlar ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, xodimlar bilan hisob-kitoblar auditini rejalashtirish masalasi yanada chuqurroq o‘rganishni va



detallashtirishni talab qiladi. Bu yoʻnalishda yetarlicha ilmiy tadqiqotlar va aniq metodik yondashuvlar hozircha yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Xususan, mehnatga haq toʻlash boʻyicha hisob-kitoblarning auditorlik tekshiruv doirasida tashkilotda qoʻllanilayotgan mehnatga haq toʻlash tizimining barcha elementlari xodimlarni ragʻbatlantirish holatiga qanday taʼsir koʻrsatayotgani oʻrganilishi va baholanishi lozim. Shuningdek, turli shakl va tizimlardagi mehnatga haq toʻlash usullarining asosiligi va maqsadga muvofiqligi tekshirilishi, mehnat unumdorligini oshirish zaxiralari aniqlanishi hamda ularni tashkilot rivojlanish maqsadlariga erishishda samarali qoʻllash imkoniyatlari oʻrganilishi zarur.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotning axborot taʼminotini mavzuga oid ilmiy, oʻquv-uslubiy va normativ-huquqiy manbalar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Nukus shahri “KK AUDIT-SERVIS” MCHJ auditorlik amaliyotining maʼlumotlari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, umumiy metodologik asos sifatida dialektika qoʻllanildi. Shuningdek, umumilmiy metodlardan: ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash, analogiya kabi nazariy metodlar hamda kuzatish, oʻlchash, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil (moliyaviy tahlil, statistik tahlil va boshqalar) kabi empirik metodlar qoʻllanildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Xodimlar bilan hisob-kitoblar boʻyicha audit oʻtkazishdan asosiy maqsad mehnatga haq toʻlash boʻyicha operatsiyalarning hujjatlar orqali toʻgʻri rasmiylashtirilganligini, tashkilot buxgalteriya hisobida ushbu operatsiyalarning toʻgʻri va oʻz vaqtida aks ettirilganligini, xodimlar bilan ishlashda mehnat qonunchiligiga rioya qilinishini, ish haqi hisob-kitoblari boʻyicha qoʻllanilayotgan buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish usullarining ishonchliligini, hisob registrlarida mavjud xatolarni aniqlash va ushbu xatolarning buxgalteriya hisobotining ishonchliligiga boʻlgan taʼsirini tekshirish va baholashdan iborat [18].

Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditining asosiy maqsadi moliyaviy hisobotdagi mazkur sohaga doir debitorlar va majburiyatlar aks ettiriladigan boʻlimning ishonchliligi, qoʻllanilayotgan hisob va soliqqa tortish usullarining amaldagi normativ hujjatlarga muvofiqligi toʻgʻrisida fikr shakllantirish hamda qoidabuzarliklarning oldini olish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur audit obyekti boʻyicha mavjud ilmiy-uslubiy va normativ-huquqiy manbalar hamda amaliyotni oʻrganish natijasida qoʻyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar tizimi ishlab chiqildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditida hal etiladigan vazifalar majmui va ularning tavsifi<sup>1</sup>**


| Vazifalar majmui                                                                                                                | Auditda hal etiladigan vazifalar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Mehnat qonunchiligiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishi va ichki nazorat samaradorligining holatini baholash | 1.1. Mehnat haqi to'lashni belgilovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning mavjudligi va tahlili;<br>1.2. Jamoa mehnat shartnomalari, xodimlarni mukofotlash va rag'batlantirish to'g'risida nizom mavjudligi;<br>1.3. Kadrlar, ish vaqti va ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hisobini hujjatlashtirishning tashkil etilishi;<br>1.4. Haq to'lash va ish haqidan ushlanadigan summalar turlarining klassifikatori (turkumlagichi) mavjudligi;<br>1.5. Ish haqi fondi ustidan nazorat tizimining mavjudligi va holati;<br>1.6. Hisobot ko'rsatkichlarining sintetik va analitik hisob registrlari ma'lumotlariga mosligi. |
| 2. Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblarga doir hisob va hisobot ma'lumotlarining ishonchliligini tekshirish.                     | 2.1. Dastlabki hisob hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi;<br>2.2. Haq turlari (ishbay, vaqtbay va h.k.) bo'yicha ish haqi hisoblashning to'g'riligi.<br>2.3. Har xil maqsadlar (mehnat ta'tili va h.k.) uchun o'rtacha ish haqini hisoblashni tekshirish;<br>2.4. Ish haqidan ushlanadigan summalar to'g'riligi;<br>2.5. Ish haqi xarajatlarini tannarx tarkibiga qo'shish;<br>2.6. Ish haqi hisoblash va undan ushlanadigan summalarni hisob registrlarida aks ettirish;<br>2.7. Soliqqa tortishda imtiyozlarni qo'llash va jami daromadni hisoblashning to'g'riligi.                                                |
| 3. YAITF bo'yicha hisob-kitoblar audit                                                                                          | 3.1. Yagona ijtimoiy to'lov fondiga ajratmalarni hisoblash bazasi va hisob-kitoblar to'g'riligi.<br>3.2. Yagona ijtimoiy to'lov fondi bilan hisob-kitoblarni hisob va hisobotda aks ettirishning to'g'riligi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |

Auditor o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, muayyan schyotlarda aks ettirilgan buxgalteriya hisobi obyektlari bo'lgan auditning asosiy yo'nalishlari va tekshirish sohalarini aniqlaydi (1-rasm).

Mehnat qonunchiligi va xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar auditida auditorlik dalillarini olish uchun quyidagi auditorlik tartib-taomillari ishlab chiqildi (2-rasm).

Xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha ichki nazorat tizimini tekshirish "Tashkilot va uning muhitini o'rganish orqali jiddiy buzib ko'rsatishlar riskini aniqlash va baholash" nomli 315-son AXS (ISA 315) talablariga muvofiq quyidagi yo'nalishlar kesimida amalga oshirilishi tavsiya etiladi:


<sup>1</sup> Normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotni o'rganish natijasida dissertant tomonidan shakllantirilgan



**1-rasm. Auditorlik tekshiruvining yo'nalishlari va sohalari<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotni o'rganish natijasida dissertant tomonidan shakllantirilgan





**2-rasm. Auditorlik dalillarini to'plash bo'yicha tartib-taomillari<sup>1</sup>**

- nazorat muhiti;
- tashkilotdagi risklarni baholash jarayoni;
- moliyaviy hisobot bilan bog'liq axborot tizimi, shu jumladan
- tegishli biznes jarayonlari va axborotning o'zaro ta'siri;
- audit o'tkazish uchun muhim bo'lgan nazorat harakatlari; nazorat vositalarining monitoringi[3].

Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash uchun nazorat vositalarining maxsus testlari ishlab chiqiladi. Ular asosida ichki nazorat tizimining sifat va miqdoriy bahosi beriladi hamda ichki nazorat tizimining holati to'g'risida auditorning fikri shakllantiriladi.

Ichki nazorat tizimini baholash bo'yicha taklif etilayotgan test varianti auditorga nafaqat tekshirilayotgan subyektning ichki nazorat tizimiga tayanish imkoniyati to'g'risida to'liq xulosa shakllantirish, balki auditorlik tartib-taomillari ro'yxatini aniqlash imkonini ham beradi. Ichki nazorat tizimini baholash doirasida ishchi hisob rejalari, mehnat haqi hisob-kitoblari va to'lovlariga oid bo'limlar mavjudligini hisobga olgan holda hisob siyosati o'rganiladi, xodimlar harakati bo'yicha hujjatlar va operativ hisob tashkil etilishi tahlil qilinadi, mehnatga haq to'lash tizimi, ish haqidan ushlab qolish turlari o'rganiladi, analitik hisobning to'g'riligi,

<sup>1</sup> Normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotni o'rganish natijasida dissertant tomonidan shakllantirilgan.

shuningdek, mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar hujjat aylanmasi va inventarizatsiya tartibi tekshiriladi [13].

Bayon qilinganlarga asoslanib, xodimlar bilan hisob-kitoblar auditida ichki nazorat tizimining (INT) ishonchliligini baholash mezonlari ishlab chiqildi va har bir mezon bo'yicha xulosa chiqarish tafsiloti tavsiya etiladi:

60 % dan kam — ishonchlilikning past darajasi, ichki nazorat tizimida jiddiy qoidabuzarliklarning yo'qligi yoki mavjudligi va natijada nazorat vositalarida yuqori risk mavjudligini anglatadi, bu o'z navbatida moliyaviy hisobotlarni jiddiy buzib ko'rsatish riskining oshishiga va firibgarlik harakatlari riskining paydo bo'lishiga olib keladi;

61–70 % — o'rtacha ishonchlilik darajasi, auditor tashkilotning ichki nazorat tizimiga to'liq ishonmasligi kerakligini ko'rsatadi;

71–80 % — ishonchlilik darajasi yaxshi hisoblanib, auditor mijoz-korxonaning ichki nazorat tizimiga ishonishi hamda uning bilan hamkorlikda ishlashi mumkinligini bildiradi;

81–100 % — ishonchlilikning yuqori darajasi, bu korxonada buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, yuritilishi va moliyaviy hisobotni tuzishda buzib ko'rsatish risklari past ekanligini ko'rsatadi.

Korxonaning ichki tartib-qoidolari sohani tartibga soluvchi qonunlar talablariga muvofiqligi ham tekshiriladi. Agar xodimlarning ahvolini yomonlashtiradigan nomuvofiqliklar aniqlansa, ish beruvchi tegishli tuzatishlar kiritishi shart.

Xodimlar bilan ishlash bo'yicha boshlang'ich hujjatlar va kadrlar ishlarini yuritish bo'yicha hujjatlar bilan tanishib chiqqanidan so'ng, auditor tashkilotdagi ichki nazorat tizimining ishonchliligi to'g'risida xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Auditni rejalashtirishda 300-son "Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish" Xalqaro audit standartiga amal qilish zarur [2].

Auditni rejalashtirish jarayoni bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

- o'rganish bosqichi – bu bosqichda mijoz to'g'risida turli ma'lumotlar, xususan, uning faoliyat sohasi va hisob-kitobni yuritishda foydalaniladigan dasturiy ta'minot haqidagi ma'lumotlar olinadi;

- baholash bosqichi – bu bosqichda muhimlik darajasi aniqlanadi va buxgalteriya hisobotida jiddiy buzib ko'rsatishlar yuzaga kelish riski baholanadi;

- rejalashtirish bosqichi – bu bosqichda auditning hajmi, muddati va umumiy yo'nalishlaridan iborat audit o'tkazishning umumiy strategiyasi, shuningdek, xodimlar bilan mehnatga haq to'lash va boshqa operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar auditini tashkil etish tartib-taomillarining namunaviy ro'yxati tavsiya etiladi. Tavsiya etilgan strategiya va tartib-taomillarning namunaviy ro'yxati asosida audit rejasining

namunaviy shakli taklif qilinadi (2-jadval).

## 2-jadval

### Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash va boshqa operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar auditining rejasi<sup>1</sup>

| Auditorlik tashkiloti     | “KK AUDIT — SERVIS” MCHJ                                                                                                                    | Auditorlik guruh rahbari  | Ye.Utepbergenov         |                |         |  |
|---------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|-------------------------|----------------|---------|--|
| Tekshiriladigan tashkilot | “Taxiatash donmahsulotlari” AJ                                                                                                              | Auditorlik guruhi tarkibi | D. Sabirov<br>A.Raximov |                |         |  |
| Audit davri               | 1.01.2024 – 31.12.2024-y. va hisobotdan keyingilar                                                                                          | Auditorlik riski          | 2 %                     |                |         |  |
| Kishi-soatlar             | 244 soat                                                                                                                                    | Muhimlik darajasi         | 5 %                     |                |         |  |
| №                         | Audit bo‘limlari bo‘yicha auditorlik amallari ro‘yxati                                                                                      | Bajarish davri            | Bajaruvchi              | Ish hujjatlari | Eslatma |  |
| 1                         | Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash va boshqa operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishning ichki nazorat tizimini baholash   |                           |                         |                |         |  |
| 2                         | Xodimlar bilan mehnat shartnomalarining mavjudligini va to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirish                                         |                           |                         |                |         |  |
| 3                         | Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda amaldagi qonunchilik normalariga rioya qilinishini baholash |                           |                         |                |         |  |
| 4                         | Birlamchi hujjatlarning rasmiylashtirilishi va ish haqini hisoblash to‘g‘riligini tekshirish                                                |                           |                         |                |         |  |
| 5                         | Xodimlar bilan xizmat safari va boshqa operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarning ishonchli hamda to‘liq aks ettirilishini tekshirish:       |                           |                         |                |         |  |
| 6                         | Rag‘batlantiruvchi va kompensatsiya to‘lovlarining to‘g‘ri hisoblanganligini hamda to‘langanligini tekshirish                               |                           |                         |                |         |  |
| 7                         | JSHDS to‘liq ushlab qolganligini hamda o‘z vaqtida o‘tkazilganligini tekshirish                                                             |                           |                         |                |         |  |
| 8                         | Ish haqidan ijro varaqalari bo‘yicha ushlab qolishlarning to‘liqligi va asoslilikini tekshirish                                             |                           |                         |                |         |  |
| 9                         | Ish haqini hisobga olish bo‘yicha ko‘rsatkichlarning moliyaviy va statistik hisobotlarda to‘liq hamda to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish  |                           |                         |                |         |  |
| 10                        | Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha konsultatsion xizmatlar (maslahatlar) va tavsiyalar.                                     |                           |                         |                |         |  |

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus sh.**  
**“KK AUDIT — SERVIS” MCHJ direktori**  
**Auditorlar:**

**Ye.Utepbergenov**  
**D. Sabirov**  
**A.Raximov**

<sup>1</sup> Normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotni o‘rganish natijasida dissertant tomonidan shakllantirilgan

Audit rejasini ishlab chiqishning asosiy maqsadi — auditorlik riskini maqbul bo‘lgan past darajaga tushirishdan iborat (3-jadval).

3-jadval

**Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash va boshqa operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar auditining dasturi<sup>1</sup>**

|                            |                                                                                                                                                  |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
|----------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|---------------------------|--|-------------------------|------------|-------------|---------|
| Auditorlik tashkiloti      |                                                                                                                                                  | “KK AUDIT — SERVIS” MCHJ                           | Auditorlik guruh rahbari  |  | Ye.Utepbergenov         |            |             |         |
| Tekshiriladi-gan tashkilot |                                                                                                                                                  | “Taxiatash donmahsulotlari” AJ                     | Auditorlik guruhi tarkibi |  | D. Sabirov<br>A.Raximov |            |             |         |
| Audit davri                |                                                                                                                                                  | 1.01.2024 – 31.12.2024-y. va hisobotdan keyingilar | Auditorlik riski          |  | 2 %                     |            |             |         |
| Kishi-soatlar              |                                                                                                                                                  | 244 soat                                           | Muhimlik darajasi         |  | 5 %                     |            |             |         |
| №                          | Audit bo‘limlari, obyektlari va auditorlik amallari                                                                                              |                                                    |                           |  | O‘tkazish davri         | Bajaruvchi | Ish hujjati | Eslatma |
| I                          | Mehnat munosabatlarining asosiligi va qonuniyligini tekshirish – Tekshiruv obyektlari:                                                           |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| 1                          | Mehnatga haq to‘lashda O‘zR MK normalariga rioya qilinishini tekshirish va b.                                                                    |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| II                         | Xodimlar bilan hisob-kitoblar birlamchi hujjatlarini tekshirish – Tekshiruv obyektlari*:                                                         |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| 2.1                        | Birlamchi hujjatlar rasmiylashtirilishini tekshirish va b.                                                                                       |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| III                        | Ish haqi hisoblashning to‘g‘riligini tekshirish - Tekshiruv obyektlar*:                                                                          |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| 3.1                        | Vaqtbay va ishbay haq to‘lash hisobini tekshirish va b.                                                                                          |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| IV                         | Rag‘batlantirish va kompensatsiya to‘lovlarining to‘g‘ri hisoblanganligi – Tekshiruv obyektlari*:                                                |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| 4.1                        | Rag‘batlantiruvchi va kompensatsiya to‘lovlarning qonuniy asosini tekshirish va b.                                                               |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| V                          | JSHDS to‘liq ushlab qolinganligini tekshirish - Tekshiruv obyektlari*:                                                                           |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| 5.1                        | Ish haqidan JSHDS ushlab qolinishini tekshirish va b.                                                                                            |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| VI                         | Ijro varaqalari bo‘yicha ushlanmalar to‘liq va asosiligini tekshirish – Tekshiruv obyektlari*:                                                   |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| 6.1                        | Ijro varaqalari mavjudligi va summalarini tekshirish va b.                                                                                       |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| VII                        | Ish haqining buxgalteriya hisobi, moliyaviy va statistik hisobotlarda to‘liq hamda to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish - Tekshiruv obyektlari*: |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| 7.1                        | Ish haqi to‘lanishini tekshirish va b.                                                                                                           |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| VIII                       | Xizmat safari va boshqa operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar audit – Tekshiruv obyektlari*:                                                     |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| 8.1                        | Xizmat safarining asosiligi, qonuniyligi va to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi va b.                                                                 |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |
| IX                         | Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha konsultatsion xizmatlar (maslahatlar) va tavsiyalar.                                          |                                                    |                           |  |                         |            |             |         |

\* Hajmni tejash nuqtai nazaridan tekshiruv obyektlari va auditorlik amallarining tafsiloti berilmadi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus sh.  
“KK AUDIT — SERVIS” MCHJ direktori  
Auditorlar:

Ye.Utepbergenov  
D. Sabirov  
A.Raximov

<sup>1</sup>Normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotni o‘rganish natijasida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.



Audit rejasining hujjatlashtirilishi auditorlik tekshiruvi yetarlicha rejalashtirilganligi va zarur auditorlik tartib-taomillari bajarilganligining isboti sifatida xizmat qiladi. Bu hujjatlar keyingi auditorlik tartib-taomillarini bajarishdan avval ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi mumkin.

Auditorlik tekshiruvlari natijalari asosida tashkilotning moliyaviy hisobotlari bo'yicha xolis va asosli xulosa shakllantiriladi. Yuqorida keltirilgan tartib-taomillar ro'yxati va tavsiya etilgan audit rejasining namunaviy shakliga asosan batafsil tekshiruv obyektlari hamda tekshiruv davri, bajaruvchi mas'ul shaxslar, natijalarni rasmiylashtirish va boshqa qo'shimcha masalalar (eslatma) bo'yicha auditorlik tekshiruvi dasturining namunaviy shakli taklif qilinadi. Shuningdek, xodimlar bilan mehnat haqi, xizmat safari va boshqa operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi bois, mazkur audit dasturini 9 ta segmentga ajratish tavsiya etiladi (3-jadval).

Tavsiya etilayotgan namunaviy audit dasturi auditorlik tekshiruvlarining asosiy muhim jihatlarini o'z ichiga olib, auditor bularni xodimlar bilan hisob-kitob operatsiyalarining qonuniyligi to'g'risida (normativ-huquqiy bazaning xususiyatlarini hisobga olgan holda) ishonchli fikr shakllantirishi chog'ida inobatga olishi lozim. Shunday qilib, auditorlik tartib-taomillarini rejalashtirish audit o'tkazishning butun davri davomida amalga oshiriladi.

Biz ishlab chiqqan va tavsiya qilayotgan namunaviy audit rejasi va dasturi auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda ko'rsatma hamda sifat nazorati vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, u optimallik mezonlariga javob beradi va auditorlik tartib-taomillarini o'tkazishda mehnat sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlab o'tish joizki, tavsiya qilinayotgan umumiy strategiya, auditorlik tekshiruv rejasi hamda dasturi audit jarayonida zaruratga qarab yangilanishi va o'zgartirilishi mumkin. Xodimlarning optimal ish haqi miqdorini aniqlash, shuningdek, mehnat haqi jamg'armasini taqsimlashning samarali mexanizmini ishlab chiqish ushbu hisob bo'limi bo'yicha doimiy ravishda o'tkaziladigan audit doirasida amalga oshiriladi. Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etish va rejalashtirishning yuqorida bayon etilgan jihatlar nafaqat auditorlik jarayonining dastlabki bosqichini takomillashtirishga xizmat qiladi, balki ichki nazorat tizimi (yoki ichki audit xizmati)ni joriy etish doirasida ham qo'llanilishi mumkin.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

1. «Xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha ichki nazorat tizimini baholash uchun ishchi hujjat» tavsiya etildi. Unga ko'ra mazkur audit obyekti bo'yicha ichki nazorat tizimining elementlari shakllantiriladi: nazorat muhitini baholash; mehnat munosabatlari va mehnat qonunlariga amal qilinishi holatini baholash; barcha turdagi

mehnat haqi hisoblash va ushlanmalar; ish haqidan ushlanadigan summalarni tekshirish; ish haqining to'lanishini; byudjet bilan hisob-kitoblar bo'yicha INT bilan hamkorlik o'rnatiladi. Ushbu elementlar kesimida ichki nazoratni baholash tartibi, mezonlari va bajariladigan auditorlik tartib-taomillari ishlab chiqildi. Shuningdek, INTning ishonchliligini baholash mezonlari ishlab chiqildi: 1) 60% dan kam bo'lgan; 2) 61-70 gacha; 3) 71-80 gacha; 4) 81-100 gacha.

2. 300-son «Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish» nomli AXSga muvofiq: o'rganish bosqichi; baholash bosqichi; rejalashtirish bosqichlariga ajratish tavsiya etildi. Shuningdek, rejalashtirish bosqichida «Auditning hajmi, muddati va umumiy yo'nalishlaridan iborat audit o'tkazishning umumiy strategiyasi» va uni amalga oshiradigan tartib-taomillarning namunaviy ro'yxati shakllantirildi. Tavsiya etilgan strategiya va tartib-taomillarning namunaviy ro'yxati asosida «Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash va boshqa operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar auditining rejasi» va uning asosida 9 ta segmentga ajratilgan «Xodimlar bilan hisob-kitoblar audit dasturi» taklif qilinib, so'nggilari auditorlik tashkilotlari amaliyotida aprobatsiyadan o'tkazildi. Ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar xodimlar bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etish va rejalashtirishda: komplekslik, uzluksizlik va maqbullik prinsiplarini ta'minlashga xizmat qildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, <https://lex.uz/docs/6257288>.
2. 300-son "Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish" Xalqaro audit standarti. Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari to'plami. II qism, 280 bet, O'zbekiston buxgalterlari va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, Toshkent-2014.
3. "Tashkilot va uning muhitini o'rganish orqali jiddiy buzib ko'rsatishlar riskini aniqlash va baholash" 315-son Xalqaro audit standarti (ISA 315): O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida», 2022-yil 11-aprel, 171-son qarori, <https://lex.uz/ru/docs/5952173>.
4. Askarova D.X. Aloqa sohasi korxonalarida mehnatga haq to'lash hisobi va auditini takomillashtirish // Dissertatsiya. – T. 2022.
5. Бычкова С.М., Фомина Т.Ю. Аудит расчетов с персоналом по оплате труда и прочим операциям // Известия Санкт-Петербургского государственного аграрного университета. 2008. № 10. С. 134-136.
6. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot. "Moliya" nashriyoti, 2007-y. -276 b.

7. Зеленко Ю.П., Золотарева Г.И. Организация и методика аудита расчетов по оплате труда автоматизированным способом // Актуальные проблемы авиации и космонавтики. 2011. Т.2. № 7.С. 163-164.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-i-metodika-audita-raschetov-po-oplate-truda-avtomatizirovan-nym-sposobom>.

8. I.N.Qo‘ziyev. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d., diss. avt-ti, T.: BMA, -2017. -70 b.

9. Ilxomov Sh.I. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasini takomillashtirish: iqtisod fan. dok. Diss. – T., 2018.

10. Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. Monografiya. – T. “IQTISODIYOT-MOLIYA”, 2008. – 152 b.

11. K.B.Axmedjanov. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d., diss. avt-ti, T.: BMA, -2016. -76 b.

12. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit: Monografiya. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2006. -262 b.

13. Куприянова Т.А. Методологические аспекты аудита расчетов с персоналом по оплате труда // Учет, анализ, аудит: проблемы теории и практики. 2017. № 19. С. 105-110.

14. Лищук Е.Н., Герман А.С. Аудит системы вознаграждения персонала: теоретические и методические аспекты // Вестник Сибирского университета потребительской кооперации. 2015. № 3.С. 40-48.

15. Парушина Н.В. Аудит расчетов с персоналом по оплате труда и с подотчетными лицами // Аудитор. 2006. № 1.С. 20-29.

16. Tuychiyev A.J. va b. Ichki audit //Darslik. – T. “Iqtisod-moliya”, 2019. – 365 b.

17. To‘laxo‘jayeva M.M Korxona moliyaviy ahvoli auditi. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” 1996 -193 b.

18. Шеремет А.Д., Суйс В.П. Аудит: учебник / А.Д. Шеремет, В.П. Суйс. 6-е изд. М.: ИНФРА-М, 2014. 352 с.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, avgust, 8-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**